

**OSKAR UAYLDNING “BAXTLI SHAHZODA” ERTAGINING  
TARBIYAVIY AHAMIYATI**

**Xudayberganova Diana Vladimirovna, Urganch davlat pedagogika  
instituti talabasi**

**THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF OSCAR WILDE'S FAIRY  
TALE "THE HAPPY PRINCE"**

**Khudayberganova Diana Vladimirovna, student of Urgench State  
Pedagogical Institute**

**ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ СКАЗКИ ОСКАРА УАЙЛЬДА  
«СЧАСТЛИВЫЙ ПРИНЦ»**

**Худайберганова Диана Владимировна, студентка Ургенчского  
государственного педагогического института.**

<https://orcid.org/0009-0000-2398-1612>

e-mail: [kudaybergenovadiana@gmail.com](mailto:kudaybergenovadiana@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jahon adabiyotining mashhur yozuvchilaridan bo‘lgan Oskar Uayldning “Baxtli Shahzoda” ertagi muhokama qilindi. Asarning asosiy g‘oyasi insoniy fazilatlar nafaqat tiriklik chog‘ida, balki hayotdan ko‘z yumib ketganingdan keyin ham o‘z kuchini yo‘qotmasligidadir. Ertakning markazida inson bilan birga hayvon, ya’ni qaldirg‘och qushi turadi. Uyiga ketmasdan, vafot etguniga qadar shahzodaning iltimos va istaklarini bajargan qushning sadoqati orqali asarning badiiy estetik qiymati yanada oshirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Haykal, Baxtli Shahzoda, mehr-muhabbat, tarbiya, sadoqat, saxovatpeshalik, o‘zida borini ayamaslik, insoniy fazilatlar, Qaldirg‘och.

**Abstract.** This article discusses the fairy tale "The Happy Prince" by Oscar Wilde, one of the famous writers of world literature. The main idea of the work is that human qualities do not lose their strength not only during life, but also after death. At the center of the fairy tale is an animal, namely a swallow bird, along with a person. The bird's loyalty, which fulfilled the prince's requests and wishes until his death, without going home, further enhances the artistic aesthetic value of the work.

**Keywords:** Statue, Happy Prince, love, upbringing, loyalty, generosity, selflessness, human qualities, swallow.

**Аннотация.** В статье рассматривается сказка «Счастливый принц» Оскара Уайльда, одного из самых известных писателей мировой литературы. Основная идея произведения заключается в том, что человеческие качества не теряют своей силы не только при жизни, но и после смерти. В центре повествования — животное — ласточка, а также человек. Художественно-эстетическую ценность произведения еще больше усиливает преданность птицы, которая исполняла просьбы и желания принца до самой его смерти, не возвращаясь домой.

**Ключевые слова:** Статуя, Счастливый принц, любовь, воспитание, верность, щедрость, бескорыстие, человеческие качества, ласточка.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).** Tarbiya borasida soʻz ketar ekan, uning inson shakllanishi, rivojlanishida eng muhim omil desak adashmagan boʻlamiz. Chunki inson hayoti davomida tarbiyaga muhtojdir. Oʻzbek millati azal-azaldan pand-nasihati ruhida yozilgan ertaklarni dastlab kattalar tomonidan eshitib, keyinchalik oʻzi ham kichik yoshdagi bolalarga aytib aytib katta boʻladi. Kelajakda yaxshi inson boʻlib yetishishida ham ularning oʻrni beqiyosdir. Zero, bu borada Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdugʻaniyevich Karimov oʻzining “Yuksak maʼnaviyat yengilmas kuch” asarida: “Takror aytishga toʻgʻri keladi – ota-onalar, ustoz-murabbiylar bu masalada hushyorlikni yoʻqotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo boʻlmasligimiz zarur” [1.10] deya taʼkidlab oʻtgan. Yaʼni buning uchun farzand tarbiyasida u hali juda kichkina yoshdalgidan diqqat va eʼtibor bilan harakat qilishimiz lozimdir. Yer yuzining qaysi burchagida boʻlishidan qatʼiy nazar, har bir mamlakatning oʻziga yarasha qadriyati, anʼanasi, urf-odatlar va mentaliteti boʻladi. Chunki ertak janri deyarli hamma mamlakatda bor va sevimlilikni yoʻqotmasdan kelyapdi desak adashmagan boʻlamiz. Bu borada Sharq adabiyotining xalq ogʻzaki ijodi namunalari va adiblar tomonidan yozilgan ertaklar bilan bir qatorda Gʻarb adabiyoti ertaklari, yirik namoyondalarining fikr-mulohazalari taqsiqga loyiqdir. Har ikkalasining markazida, Vatanni sevmoq, ota-onaga hurmat koʻrsatish, mehr, sadoqat, yaxshilik, ezgulik kabi insoniy fazilatlarni koʻrishimiz mumkin. Buni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik — milliy gʻoyamizning poydevoridir” asarida quyidagicha izohlanishidan ham bilib olsak boʻladi: “Maʼnaviyatimiz uchun eng katta xavf — bu aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida” [3.11]. Yurtboshimizning ushbu nutqidan

keyin shuni ayta olishimiz mumkinki, demak har birimiz loqayd, bee'tibor bo'lmasligimiz lozim. Chunki jamiyatning har bir a'zosi o'zini isloh qilish orqali, vatanimiz yuksalishiga, taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi desak adashmagan bo'lamiz. Buni XIX asrda o'rtalari, XX asar boshlarida yashagan, jahon adabiyotida o'zining bir qancha she'rlari, hikoyalari, ertaklari, dramalari bilan tanilgan Oskar Uayld asarlarida ham duch kelishimiz aniq. Yozuvchi, shoir, nosir, tanqidchi, dramaturg 1854-yil 16-oktabrda Irlandiyaning Dublin shahrida ziyolilar oilasida tug'ilgan. [2.196]. Adibning otasi ham, onasi ham ilmi bo'lgan. Onasi she'riyatga ixlosi baland, adabiyotdan xabardor bo'lganidan she'rlar yozib turgan. Shoira sifatida tanilgan. Farzand kamolotida ota-onaning o'rni beqiyosdir. Shu sababdan bo'lsa kerak, Oskarning oilasida san'atning ulug'lanishi natijasida, ularning uyiga ilm ahllari, san'atkorlar yig'ilib turgan. Bunday tez-tez tashkillashtirilgan mehmondo'stlikdan keyin Uayldning ham qalbida adabiyotga iliqlik paydo bo'la boshlagan. Dastlabki ta'limni kichik yoshidan onasidan olgan. Shu zaylda o'qishini davom qildirib, dunyoning nufuzli ta'lim dargohlarida o'qigan. Dunyoning bir qancha davlatlarida bo'lgan. Adib nomini abadiyatga muhrlagan asarlaridan biri, qaysidir ma'noda shoh asari bu “Jiddiy bo'lish qanday muhim” komediyasidir. “Baxtli Shahzoda” ertagi 1888-yilda yozilgan. U asosida O'zbekiston Respublikasida “O'zbekfilm” kinostudiyasi tomonidan 1992-yilda multfilm ishlangan [2.197].

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).** “Baxtli Shahzoda” ertagi tuzilishi jihatidan qisqa va lo'nda bo'lganidan bugungi kunga qadar o'z badiiy estetik qiymatini yo'qotmay kelyapti. Asarning markazida vafot etgan shahzodaning haykali turadi. Ya'ni bolaligidan to'kin-sochin hayotda yashagan, umri davomida qiyinchilik ko'rmagan bola. Erta olamdan o'tganidan keyin, katta, chiroyli, qimmat javohirlar bilan bezalgan, shaharning ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan haykal orqali asar yoritilib berilgan. Shahar markazida qad rostlagan mazkur haykalning oldiga Qaldirg'och qushining kelishi va uning oyoq ostida vafot etishi bilan asar yanada jonlantirilgan. Mehr-muhabbat, sadoqat, vafo, qadr-qimmat kabi his-tuyg'ular nafaqat insonga, balki, hayvonlarga ham xosligi shu qush orqali yoritilib berilgan. Bu yerda Qaldirg'och qushi sheriklaridan qolib ketib, tunashga joy qidirib yurganida baxtli shahzodaning haykali yoniga kelib qoladi va oyoqlari ostiga qo'nib oladi. Behosdan yomg'ir tomchisi ustiga tushishi bilan qush hayratlanadi. Atrofiga qarab,



axir havo yaxshi, bulut ko‘rinmaydi qayerdan keldi bu tomchi deb hayron turganida yana bir yomg‘ir tomchisi tushadi. Shunda Qaldirg‘och:

“–E, o‘rgilib qo‘ydim: yomg‘irdan saqlolmaydigan haykaldan nima naf?!” [2.199] deya afsuslanib gapiradi. Lekin bu fikr qisqa vaqtgagina amal qiladi. Chunki qaldirg‘och jahli chiqib endi uchay deb turganida osmondan yana bir tomchi suv tushdi. Ajablangan qush birdaniga yana yuqoriga qaraydi va haykalning ko‘zlaridan oqayotgan marjon-marjon yoshlarni ko‘radi. Nima qilishini bilmasdan unga savol bilan yuzlanadi:

“–Sen kimsan?

–Men Baxtli Shahzodaman.

–Unda nega yig‘layapsan?” [2.200] deganida u o‘tmishini, tiriklik chog‘ida rohat-farog‘atda yashaganini, loaqal bir martagina ham yig‘lamaganini aytib beradi. San-Susi saroyi shunday umrining baxtli onlarini kechirgan joyi sifatida tasvirlaydi. U do‘stlari bilan o‘yin-kulgu qilib vaqtini chog‘ o‘tkazganini, yon-atrofi faqatgina go‘zallik bilan burkanganini bod-bod aytadi. Shu zaylda yashadim va shu tarzda vafot etdim deb ho‘rsinib qo‘yadi. Garchan uning yuragi hozir qalaydan bo‘lsa ham, ko‘z yoshlarini tiya olmaydi. Insoniylik tuyg‘ulari barq urib, ufurib turganini shundan ham bilib olsak bo‘ladi. Yig‘lab turganini sababini ham quyidagicha izohlaydi:

“–Uzoqda, huv anavi tomonda, jinko‘chada derazasining bir tabaqasi ochiq turgan kulbani ko‘ryapman” [2.201] shu uyda bir tikuvchi ayol istiqomat qilishini, saroy ahlining liboslarini tikaishini, ayni damda bolasi bemor ekanligi aytadi. Shahzodaning qo‘lidagi qilich dastasida qimmatbaho tosh borligini va uni olib o‘sha ayolga olib borib berishini aytadi. Biroq Qaldirg‘och ketishini, yaqinlari uni kutayotganini ayganida, Shahzoda undan o‘tinib yolvorib, unga yordam berishini so‘raydi. Qushning bolalarni hushlamasligi, buning bir qancha sabablari borligi uchun va havoning salqinligi uchun dastlab yo‘q deya javob beradi. Chunki Qaldirg‘ochlar issiq mamlakat, o‘lkalarda yashaydi. Lekin, o‘tinishlar natijasida rahmi kelib, oxir-oqibat rozi bo‘ladi. Toshni olib borib, u yerda ko‘rganlarini Shahzodaga aytib beradi. Endi sovuq qotmay turganini aytadi. Shunda Shahzoda:

“–Chunki sen savobli ish qilding-da” [2.202] deb unga javob beradi. Adib ushbu dialog orqali insondagi fazilatlarni hayvonga ko‘chirish natijasida asarning badiiy estetik qiymatini oshirgan desak adashmagan bo‘lamiz. Keyin qilgan ishidan xursand bo‘lib, daryoda cho‘milib turganida uni odamlar ko‘radi va qishda bu

yerlarda Qaldirg‘och nima qilib yuribdi deb ajablangan holda matbuotlarga har xil maqolalar yo‘llaydi. O‘zi haqidagi ma‘lumotlarni, yangiliklarni eshitgan qush oxir-oqibat Misr tomonga, issiq o‘lkalarga ketishga qaror qiladi. Ammo, ketishi oldidan Shahzodasi yoniga kelib, ketmoqchiligidini, u taraflarga qandaydir narsa berib yuborsa olib ketib, yetkazib berishini aytadi. Ikkinchi bora unga yana yolvorib, ketmasligini, bir yigitchaga yordam berish uchun qolishini iltimos qiladi. Qush axir meni kutishyapti deb bir necha bor aytadi. Qalbidagi iliqlik avj urib, yana bir kun qolishini, yigitchaga yordam berishini aytadi. Bu safar nimangni olib beraman deganida, ko‘zidagi javohirlar Hindistondan keltirilganligini va u juda noyob, qimmatbaho ekanligini ta‘kidlaydi. Shunda qush bir deganda bir ko‘zining nurini olib, muhtoj bolaga olib borib beradi. Qaldirg‘och yana iqlimning, obi-havoning sovuqligidan shikoyat qilib Misrga ketishini, u yerdan ko‘zlariga nur olib kelishi aytadi. Uni hech qachon unutmazligini va bahorda yana haykali oldiga kelishini aytib turganida, Shahzoda bir qizaloqning yig‘lab turganini eshitadi. Anashu qizchaga yordam berishimiz lozim. Buning uchun sen ikkinchi ko‘zimni ham o‘yib ol va unga yetkazib ber deya yolvoradi. Noiloj qolgan qush uning iltimosini bajaradi va qizchani ko‘nglini hushnud qiladi. Endi ikkala ko‘zidan ayrilgan Baxtli Shahzodaga qushni judayam rahmi keladi. Shu kungacha hayotida bo‘lib o‘tgan barcha voqealarni aytib berib, uni xursand qilishga harakat qiladi. U shaharni kezib chiqishini, atrof-muhitni, odamlar qanday hayot kechirayotganini bilib kelishini iltimos qilganida, Qaldirg‘och uni gapini yerda qoldirmay hamma yerni sayr qilib keladi. Ko‘rgan kechirganlarini batafsil aytib beradi. Boylar bir tarafda rohat-farog‘atda yashasa, kambag‘al bechoralar ayanchli holda yashayotganini, bolachalar och-nahor yurganini aytganida Shahzoda chiday olmaydi va shunday deya xitob qiladi:

“Dunyoda eng mushkul jumboq – nochorlikdir” [2.204] deydi haykalning usti qat-qat oltin bilan qoplanganini, uni olib muhtoj insonlarga tarqatishini aytadi. Qaldirg‘och birma-bir oltinlarini yechib olib, och-nochor xalqqa ulashadi. Hamma xursand, endi to‘yib non yeyishlarini, qornini to‘ydirishlarini aytishadi. Bu vaqt ichida Baxtli Shahzodaning na oltini, na dur-u javohirlari qolgan edi. Qor yog‘ib, kunlar yanada sovub borgan bir pallada, qush kelib Shahzodaning yelkasiga qo‘nib u bilan xayrlashadi, alvidolar aytib turganida, Shahzoda Misrga ketayotganidan judayam xursandligini aytadi. Qaldirg‘och esa abadiy hayotga ketayotganini, uni hech qachon yolg‘iz tashlab ketmasligini aytib, oyoqlari ostida jon beradi. Bu

vaziyatdan keyin, Baxtli Shahzoda garchan haykal bo‘lsa ham, ichida nimadir uzilganday bo‘ladi. Bo‘lgan voqeadan bexabar shahar Hokim aylanib yurib birdan shunday deb baqirib yuboradi:

“–Baxtli Shahzoda juldurvoqiga aylanib qolibdi-ku!” [2.206] deya hayratlanadi. Endi bu haykalni joyi bu yerda emasligini, uni eritib boshqadan o‘zlarini haykalini yasashni muhokama qila boshlaydilar. Oxir-oqibat shahar Hokimi va Maslahatchilari orasida uzoq vaqt bahs-munozaraga sabab bo‘ladi. Asar so‘ngida Baxtli Shahzodaning haykali erimagani uni tirikligida ham, vafotidan keyin ham ismini yo‘qolib ketmasligiga sababchi bo‘lgan desak adashmagan bo‘lamiz.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, dunyoning qaysi qit‘asida bo‘lishidan qat‘iy nazar, barcha mamlakatning purma‘no, didaktik ko‘rinishdagi asarlari bo‘ladi. U xoh xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lishi, xoh muallif tomonidan yozilgan asar bo‘lishi mumkin. Buni Oskar Uaylding asarida ham uchratishimiz tabiiy. Chunki, adibning “Baxtli Shahzoda” asari tarbiyaviy jihatdan har qanday yoshdagi insonni qalbiga iliqlik, saxovatpeshalik kabi tuyg‘ularni joylashi aniq. Yaxshilik, ezgulik qilish uchun o‘zidagi bor qimmatbaho narsalarni berganidan ham Shahzodaning qanday jasur, saxiy inson ekanligini bilib olsak bo‘ladi. Asarning markazida turgan qush ham qaysidir ma’noda eng oliy ishni qilgan deya ayta olamiz. Chunki issiq mamlakatlarga ketib, jon saqlashdan voz kechib, Shahzoda bilan birgalikda ko‘pchilik muhtoj xalqqa yordam bergani buning yaqqol isbotidir. Asarning g‘oyasi insonparvarlik bilan birgalikda, tarbiyaning oliy darajada shakllanishida deya ayta olamiz. Ertakning yosh-avlod tarbiyasidagi ustuvorligi shundan iboratki, bugungi kunda texnologiyalar asrida, har xil elektron vositalardan qochib, shunday asarlar mutolaa qilishga xohish va vaqt topa olishidadir. O‘quvchi asar o‘qish davomida nafaqat yangi bilim oladi, balki dunyoqarashi, fikrlash doirasi kengayadi. Biz o‘ylaymizki mazkur ertak kabi hikmatomuz asarlar inson rivoji va kamolotida muhim manbalardan biri desak adashmagan bo‘lamiz. Yozuvchining yana bir necha asrlar davomida nomini tarixga muhrlaydigan, qo‘lma-qo‘l bo‘lib, sevib mutolaa qilinadigan asarlaridan biri aynan shu asardir deya ishonch bilan ayta olamiz.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch .–Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. – 108 b
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. –Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. –224 b
3. Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik — milliy g‘oyamizning poydevoridir. —Toshkent: “Tasvir” nashriyot uyi, 2021. —36 b.



**Research Science and  
Innovation House**

